

## **FAKTORING**

<b>Moliyaviy xizmat turi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Faktoring – qarz talab qilish huquqini topshirish orqali moliyalashtirish</li> </ul>
<b>Faktoring turi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ochiq faktoring regress huquqi bilan/yoki regress huquqisiz</li> </ul>
<b>Maqsad:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mahsulot va xizmatlar yetkazib berilgandan keyin to'lovni kechiktirib to'lash sharti bilan debitorlik qarzini sotib olish</li> </ul>
<b>Faktoring ishtirokchilari:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Faktor (Faktoring bo'yicha moliyaviy agent) – "Orient Finans" XATB;</li> <li>Kreditor - Yetkazib beruvchi - mahsulot yoki xizmatni kechiktirilgan to'lov bilan sotadi;</li> <li>Debitor - Xaridor (qarzdor) - mahsulot yoki xizmatni kechiktirilgan to'lov asosida sotib oladi.</li> </ul>
<b>Faktoring bo'yicha valyuta turi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Milliy valyuta – so'm</li> </ul>
<b>Maksimal faktoring summasi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Qarzdorning moliyaviy holatidan kelib chiqib, debitorlik qarzi summasidan oshmagan miqdorda</li> </ul>
<b>Faktoring bo'yicha maksimal muddat:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>90 kalendar kundan oshmagan muddat</li> </ul>
<b>Faktoring bo'yicha diskont miqdori:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>30 kalendar kungacha faktoring summasidan 2,5%;</li> <li>60 kalendar kungacha faktoring summasidan 5,0%;</li> <li>90 kalendar kungacha faktoring summasidan 7,5%.</li> </ul>
<b>Diskont to'lov tartibi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Diskont faktoring operatsiyasini amalga oshirishdan oldin to'liq miqdorda bir martalik to'lov bilan to'lanadi";</li> <li>Diskont kreditor yoki debitor tomonidan to'lanishi mumkin.</li> </ul>
<b>Faktoring qaytarish muddati:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Faktoring amaliyoti muddatining oxirgi kunida yoki individual jadval bo'yicha</li> </ul>

<b>Faktoring bo'yicha penya miqdori:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Muddati o'tgan qarzdorligining qoldig'iga yillik 40% hisobida</li> </ul>
<b>Faktoring ta'minoti:</b>	<p>Faktoring garov ta'minotisiz beriladi, ammo Faktoring bo'yicha bitim miqdori va uning o'ziga xosligidan kelib chiqib, Bank quyidagi garov ta'minotlaridan birini talab qilish huquqiga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Mulk, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar garovi;</li> <li>Uchinchi shaxslar kafilligi;</li> <li>Boshqa banklar, kredit tashkilotlari va sug'urta kompaniyalari kafolati;</li> <li>Kreditni to'lamaslik xavfidan sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi;</li> <li>O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid bo'limgan boshqa ta'minotlar.</li> </ul>
<b>Ta'minot miqdori bo'yicha talablar:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kredit miqdorining kamida 125%, Bankga aloqador shaxslar bo'yicha kamida 130% bo'lishi kerak;</li> </ul>
<b>Faktoring olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yetkazib beruvchidan faktoring bo'yicha ariza;</li> <li>Debitorning yuridik hujjatlari;</li> <li>Debitorning moliyaviy hujjatlari (buxgalteriya balansi 1 va 2-shakli);</li> <li>Yetkazilgan mahsulot va xizmatlar bo'yicha shartnomalar va hisobvaraq-fakturalar;</li> <li>Garov ta'minoti bo'yicha hujjatlar.</li> </ul> <p><i>*Bank bitim o'ziga xosligidan kelib chiqib, qo'shimcha hujjatlar talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.</i></p>

<b>Debitorga qo'yiladigan asosiy talablar:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ro'yxatdan o'tgan kundan 6 oydan kam bo'Imagan davrda xo'jalik faoliyatini amalga oshirgan bo'lishi kerak;</li> <li>• Yaxshi kredit tarixiga ega bo'lish;</li> <li>• So'nggi 3 oylik davr mobaynida o'rtacha oylik pul tushumlari faktoring summasining 1,5 baravaridan kam bo'imasligi kerak;</li> <li>• "Orient Finans" ATBda xizmat ko'rsatilishi kerak;</li> <li>• Zarar ko'rmagan va likvid bo'Imagan balansga ega bo'imaslik;</li> <li>• Kreditga layoqatlilik klassi "BBB" dan past bo'imaslik;</li> <li>• Hozirgi kechiktirilgan qarzdorligi bo'imasligi kerak;</li> <li>• №2-kartotekaga ega bo'imaslik.</li> </ul>
<b>Faktoring amal qilmaydigan holatlar:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Muddati o'tgan debtorlik qarzdorligi mavjud bo'lsa;</li> <li>• Mahsulot yetkazib berilgandan so'ng to'lov muddati 90 kalendar kundan oshadigan shartnomalar bo'yicha;</li> <li>• Naqd pul yoki naqd pulsiz to'lov ko'zda tutilgan shartnomalar bo'yicha;</li> <li>• Mijoz shartnama bo'yicha majburiyatlarni noto'g'ri bajarganligi tufayli debtor tomonidan da'volar va kelishmovchiliklar bo'lgan shartnomalar bo'yicha;</li> <li>• Komissioner (agent) tomonidan topshiruvchi (prinsipal) topshirig'i bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha; • To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash ko'zda tutilmagan shartnomalar bo'yicha;</li> <li>• Byudjet tashkilotlariga qarz talablar bo'yicha;</li> <li>• Jismoniy shaxslarga nisbatan qarz talablar bo'yicha;</li> <li>• To'lovga layoqatsiz deb topilgan yoki tugatilgan korxona va tashkilotlar bo'yicha;</li> <li>• Zarar bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar bo'yicha;</li> <li>• Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha;</li> <li>• Eksport konsignatsion kontraktlar bo'yicha;</li> <li>• Kompensatsion va barter kelishuvlar bo'yicha;</li> <li>• Bajarilgan ishlar uchun bosqichma-bosqich yoki oldindan (avansli) to'lashni ko'zda tutilgan shartnomalar bo'yicha;</li> <li>• Xaridor tovari shartnomada belgilangan muddatda qaytarish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek savdo xizmatlari ko'rsatilgandan keyin.</li> </ul>

**Faktoring afzalliklari: Yetkazib beruvchilar faktoring yordamida:**

- To'lovni tez oladilar va kassa uzilishlarini kamaytiradilar;
- Xaridor tomonidan to'lanmaslik xavfini pasaytiradilar;
- To'lovni kechiktirish bilan xaridorlarga yetkazib berish hisobida mijoz bazasini kengaytiradilar;
- Bosimda bo'lgan va barqaror moliyaviy oqimga ega bo'ladilar.

**Faktoring debitorlarga quyidagilarni taklif etadi:**

- Yetkazuvchilar bazasini kengaytirish va sotuv aylanmasini oshirish;
- To'lovni qulay shartlarda amalga oshirish va to'lov kechiktirilganini oshirish;
- Yangi yetkazuvchilar jalb qilinishi hisobida mahsulot assortimentini kengaytirish;
- Erkin pul oqimini (FCF) boshqarish orqali kompaniya daromadini oshirish;
- Yetkazilgan mahsulot bo'yicha faktorlardan talab xavfini boshqarish, bu orqali o'zaro qoplama, to'g'rilash yoki qaytarish amallari amalga oshirilgan.

**Faktoringdan qanday foydalanish mumkin:**

- Aylanma mablag'larni to'ldirish;
- Xaridor uzoq vaqt to'lamaganda, biznes egasi qo'shimcha xarajatlar qila olmasligi kompaniyaning rivojlanishini to'xtatadi. Faktoring yordamida doimo pul bo'ladi, yangi mahsulot liniyasini yaratish yoki yetkazib berish geografiyasini kengaytirishga imkon bo'ladi;
- Kassa uzilishini bartaraf etish;
- To'lovni kechiktirish shartlari shartnomada belgilangan bo'lsa, siz pul yetishmasligi xavfiga duch kelishingiz mumkin. Faktoring byudjetdagi bo'shliqlarni yopishga va o'z vaqtida majburiyatlarni bajarishga yordam beradi;
- Katta chakana sotuvchilar va boshqa soha kompaniyalari bilan ishlash;
- Savdo tarmoqlari yuzlab kontragentlar bilan ishlaydi, shuning uchun ko'pincha yetkazib berishlar uchun to'lovlarini 45—75 kun ichida amalga oshiradilar. Faktoring yirik xaridorlar bilan shartnomalar tuzishga va darhol pul olishga imkon beradi.